JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 5 - aprel 77-3-52-Q/23 Paxtakor tuman hokimligi

“Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Yunus Rajabiy va Abdulla Qodiriy ko‘chalari kesishmasiga yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari” talablari ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish, tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2023-yil 14-fevraldagi 41/371-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2023-yil 14-fevraldagi 41/371-sonli xati inobatga olinsin.

2. “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Y.Rajabiy va A.Qodiriy ko‘chalari kesishmasiga 3.27 “To‘xtash ta’qiqlanadi” yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (R.Zavqiev)ga yangi o‘rnatilayotgan yo‘l belgilarining amaldagi davlat namunasi (davlat standarti) asosida bo‘lishini qat’iy nazoratga olish topshirilsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (E.Axmedov) va IIB YHXB (A.Ashurov)larga “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Y.Rajabiy va A.Qodiriy ko‘chalari bo‘ylab avtomobillar harakatining o‘zgarishi munosabati bilan piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O.Amanov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b. **A.Ashurov**